

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**O'QISH VA YOZUV AMALIYOTI  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili)

**Chirchiq – 2023**

<b>Fan/modul kodi</b> O'YA106 O'YA208	<b>O'quv yili</b> 2023-2024 2024-2025	<b>Semestr</b> 1/3/4	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6/4/4	
<b>Fan/modul turi</b> <b>Majburiy</b>	<b>Ta'lim tili</b> <b>O'zbek</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>6/4/4</b>	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>O'qish va yozuv amaliyoti</b>	196	224	420
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning B2-C1 daraja talabiga javob beruvchi matnlarni o'qib, tushunishlari va turli mavzularga oid matnlarni yoza olish mahoratiga ega bo'lishlari va egallangan o'qish va yozish ko'nikmalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir. Fanning asosiy vazifasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yirlarga ko'ra talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini C1 darajaga yetkazish, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishi yozishning boshlang'ich malakasini shakllantirish va takomillashtirishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – O'qish va yozuv amaliyoti fani talabalarga o'rganilayotgan chet tilida o'qish va yozish mahoratini o'rgatishdan iborat. Mazkur fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining “Chet tilni egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash” to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yirlari (CEFR) ga ko'ra B1 va C1 darajaga mos keladigan mavzularga oid turli matn turlarini o'qib, mazmunini tushunishlari va turli matnlarni yozishni o'rganadilar. Shuningdek, talabalarga bitiruv malakaviy ishlarini yozish, ilmiy ishni boshlash bosqichlari, yozish uslublarini to'g'ri qo'llash va ilmiy matnni tahrirlash o'rgatiladi. Ushbu fan o'z tarkibida uch modulni – “O'qish”, “Yozma nutq amaliyoti” va “Ilmiy yozuv” modullarini mujassamlashtirgan. O'qish va yozuv amaliyoti fani 1-3-4- semestrlar davomida o'qitiladi.</p> <p><b>II. Asosiy qism (<i>amaliy mashg'ulotlar</i>)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mazmundagi mavzular tavsiya etiladi:</b></p> <p><b>O'qish moduli</b></p> <p>O'qish modulidagi matn mavzulari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- oila, oilaviy munosabatlar va bayramlar;</li> <li>- shaxsiy ma'lumotlar, tarjimai hol;</li> <li>- buyum nomlari;</li> <li>- narxlari va shaxsiy buyumlar;</li> <li>- kundaliklar va kun tartibi;</li> <li>- prospektlar;</li> <li>- taomlar va taom menyulari;</li> </ul>			

- yashash joylari, orzudagi uy;
  - taklifnomalar va xatlar;
  - bo'sh vaqt va dam olish kunlaridagi mashg'ulotlar;
  - nemis tilli o'lkalarda bayramlar;
  - sayohat, sayohat transporti va turlari;
  - ish va ish kuni;
  - uchrashuv va uchrashuv belgilash;
  - sog'lik (kasallik) va salomatlik maslahatlari;
  - internet matnlari (bloglar);
  - yangiliklar va ob-havo ma'lumotlari
  - e'lonlar (grantlar, sayohat manzillari haqida);
  - qo'llanmalar/instruksiyalar (texnik vositalar, asboblar uchun );
- O'qish modulida quyidagi o'qish maqsadlari ilgari suriladi:
- ekstensiv o'qish (badiiy o'qish);
  - intensiv o'qish (ma'lumot uchun o'qish).

4-semestrda quydagи strategiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- asosiy fikrlarni anglash\bilish uchun o'qish;
- g'oyani bilish uchun o'qish;
- maxsus ma'lumotni olish uchun o'qish;
- so'zlarning kontekstdagi ma'nosini topish;
- diqqat bilan o'qish;
- ko'z yogurtirib o'qish;
- tez o'qish.

O'qish moduli bo'yicha keyingi kursda o'tiladigan taxminiy mavzular oldingi semestr mavzular mazmuniga o'xshash bo'lsada, bu kurslarda asosiy e'tibor ushbu mavzularning chuqur va batafsil o'rganilishiga qaratiladi.

#### **Matn turlari (autentik matnlar)**

- gazeta va jurnallardagi maqolalar (yangiliklar, reportajlar, badiiy maqolalar, jurnallardan olingan ilmiy maqolalar);
- ish yuritish xatlar;
- Internetdagi matnlar (bloglar, veb-saytlar, forumlar);
- Yo'riqnomalar (masalan, uskunalar uchun);
- Ensiklopediya matnlari;
- Kasbiy mavzudagi matn va maqolalar;
- Hisobotlar, tahlillar va sharhlar.

## **Yozma nutq amaliyoti moduli**

Yozma nutq amaliyoti moduli 1-3-4 semestrlar davomida o'qitiladi. Birinchi kurs yakunida talabalar CEFR talablriga ko'ra yozish ko'nikmalarini A2 (+) darajada egallasalar, 2-kurs yakuniga kelib CEFR C1 darajasi talabiga javob beruvchi turli matnlarni yoza olish mahoratiga ega bo'ladilar.

- tabriknomalar va taklifnomalar;
- shaxsiy ma'lumotnomalar, anketa savollari;
- sodda xatlar, eslatmalar, qaydlar;
- voqe-hodisa, odamlar va predmetlar tasviriga bag'ishlangan xatlar, matnlar;
- rezyume va tarjimai hol;
- kichik hikoyalar;
- taom retseptlari;
- hisobotlar va bayonnamalar;
- shartnomalar, ijara shartnomalar;
- buyurtmalar va band qilish;
- rasmiy (davlat tashtilotlari, yuqori tashkilotlar, sug'urta v.h.) va norasmiy xatlar;
- taqdimot va diagrammalar;
- shikoyat va da'vo xatlari, bekor qilish (shartnoma v.b.) va kechirim so'rash
- ariza va motivatsiya xatlari;
- shaxsiy kundalik Yozma nutqni rivojlantirishning asosiy omillari;
- yozma ishni rejalashtirish (klaster usulida, aqliy hujum va h.);
- yozma ishning maqsadi va kimga yo'naltirilganligini aniqlash va shunga qarab tegishli uslubni tanlash mahorati.

Grammatik tamoyillar:

- gap tuzish (gapda so'z tartibi);
- gapda ega va kesimning o'rni, moslashuvi;
- gap turlari (oddiy, qo'shma gaplar);
- bog'lovchilar va kirish so'zlar;
- so'z tanlash (rasmiy va norasmiy uslubdagi so'zlar va h.)
- punktuatsiya Qisqa insho (paragraf) yozish bosqichlari
- mos sarlavhani tanlash;
- kirish qismini yozish;
- inshoning asosiy g'oyasini ifodalash;
- dalil va isbotlarni bayon etish;
- yozma ishda plagiatga (ko'chirmakashlikka) yo'l qo'ymaslik

Faktlar asosida yozish:

- bayonnomalar (masalan, ijtimoiy tadqiqotlar, jamoa muammolari, ta'lim jarayoniga oid muammolar va b.);

- insholar;
- tasviriy;
- hikoya tarzidagi;
- qiyosiy;
- tahliliy (sabab va natijalarni tahlil qilish);
- kitob yoki filmlarning qisqa taqrizi;
- universitet gazetasi uchun maqola Xatlar va boshqa muloqot hujjatlari:
- turli maqsadlardagi xatlar;
- rasmiy va norasmiy xatlar.

### **III. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

- Einführung ins Fach: Text- und Textsorte;
- Kennenlernen;
- „Mein Porträt“ schreiben;
- Wie lernen Sie am liebsten?;
- Einen kurzen Text über sich schreiben;
- Sprachenquiz;
- Über die eigenen Lernziele und Stärken schreiben;
- Mit anderer einen Party planen;
- Einladungen schreiben. Per SMS Termine vereinbaren;
- Schriftliche Einladungen verstehen;
- Auf Einladungen positiv und negativ reagieren;
- Mithilfe von Stichpunkten vor Publikum über Feste in Usbekistan sprechen;
- Eine Bitte höflich annehmen und ablehnen, über Feste in Usbekistan schreiben;
- Vermutungen formulieren;
- Eine Unterkunft beschreiben;
- Über Erfahrungen und Ereignisse im Urlaub berichten;
- In Zeitungsartikeln die Hauptaussagen verstehen;
- Wegbeschreibungen schreiben;
- Aussagen verschiedenen Personen zum Thema „Wohnen“ verstehen;

- Den Inhalt einer Werbebroschüre verstehen;
- Eine schriftliche Anfrage verstehen;
- Zeitungsartikel: über die Wohnformen;
- In einer E-Mail eine Unterkunft beschreiben, Vorteile nennen und Vorschläge Machen;
- Über die Mehrgenerationenhaus lesen;
- Traumhaus: Über seine Wohnsituation berichten schreiben;
- Den Text „Wohnen in der Großstadt-in einer WG“ verstehen;
- Die Mail über Wohngemeinschaft (WG) schreiben;
- Wohnen in der Stadt und auf dem Land;
- Nach und Vorteile schreiben;
- Umziehen;
- Die Aufsätze von den Anderen lesen und berichten;
- Aufsatz zum Thema: "Wie habe ich meine Winterferien verbracht";
- Aus dem Zeitungsbericht: wichtige Informationen verstehen;
- Über Traumberuf schreiben;
- Aus den Stellenanzeigen wichtige Informationen entnehmen;
- Ein Interview nehmen, Fragen und Antworten schreiben;
- Eine Reportage über Musikband lesen und Informationen ergänzen;
- Die Einladung zu einem Konzert schreiben;
- Hauptaussagen von Liedtexten verstehen, Meinungen zu Videoclips ausdrücken;
- Eine deutsche und usbekische Musikerin/einen Musiker vorstellen;
- Über eine deutsche und usbekische Musikerin/einen Musiker schreiben;
- Ratschläge eines Experten zum Thema "Einkaufsverhalten" lesen;

3.

**IV. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**  
**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- o'rganilayotgan asosiy chet tilini Umumevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'zlashtirishi;
- o'rganilayotgan chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlarini bilish va qo'llay olish ko'nikmalarini egallashlari;
- o'rganilayotgan chet tilida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini egallashi;
- tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli til materiallari bilan ishlash usullari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs modullari va ularning mavzularidan kelib chiqqan holda mantiqiy bayon etishi;
- chet tilidagi og'zaki va yozma shakldagi ma'lumotlarni tushunish

	<p>maqsadida turli strategiyalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish borasida yetarli bilim va <i>ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak</i>.</li> </ul>
4.	<p><b>V. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Talabalardan til kompetensiyalariga va modullar mazmunini aks ettiruvchi asosiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, ya’ni chet tilida og‘zaki nutqni tushunish, o‘z fikrini chet tilida bayon qilish, o‘qish va yozish mahoratini namoyon qilish hamda chet tilida chop etilgan turli matbuot manbaalaridagi autentik materiallarni tushuna olish talab qilinadi. Fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlari (CEFR) ga ko‘ra kurslar kesimida A2 – C1 darajaga mos keladigan til materiallarni tushunish, mazmunini tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini o‘qib, tinglab mazmunini tushunishlari va o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ifoda eta olishlari shart.</p>
6.	<p><b>VII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Billina, Anneli. Deutsch üben. Lesen und Schreiben A1-C1. Heuber. 2018.</li> <li>2. Seiffert, Christian. Deutsch intensiv. Schreiben B1. Ernst Klett, Stuttgart, 2018</li> <li>3. Hohmann, Sandra. Deutsch intensiv. Schreiben B2. Ernst Klett, Stuttgart, 2019.</li> </ol> <p><b>VIII. Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Müller M., Rusch P. u.a. Lesetexte mit Aufgaben. Ernst Klett, Stuttgart, 2013</li> <li>2. Maenner, Dieter. Prüfungstraining DaF B2. Cornelsen Verlag, Baden-Württemburg, 2018.</li> <li>3. Dittrich, Roland Rudolf, Baier, Gabi. Prüfungstraining DaF C1. Cornelsen Verlag, Baden-Württemburg, 2018.</li> <li>4. Dallapiazza R.M., Evens S. u. a. Ziel B 2, Hueber Verlag, Ismaning. 2015.</li> <li>5. Perlmann-Balme Michaela, Susanne Schwalb. Sicher B1+. – München: Hüber Verlag, 2012.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.cspl.uz">www.cspl.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.mein.deutsch">www.mein.deutsch</a></li> </ol>

	<p>3. <a href="http://www.hueber.de/aspekte">www.hueber.de/aspekte</a>          4. <a href="http://www.deutsch.unterricht.de">www.deutsch.unterricht.de</a>          5. <a href="http://www.grammatik.de">www.grammatik.de</a>          6. <a href="http://www.grammatik-online.de">www.grammatik-online.de</a>          7. <a href="http://www.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik">www.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik</a>          8. <a href="http://www.begegnungen-deutsch.de">www.begegnungen-deutsch.de</a>          9. <a href="http://www.schubert-verlag.de/aufgaben/uebungen_b1/b1_uebungen_index.htm">www.schubert-verlag.de/aufgaben/uebungen_b1/b1_uebungen_index.htm</a></p>
7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<b>Fan/modul uchun ma'sul:</b> Z.I. Sanakulov- CHDPU, Nemis tili kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Z.M. Kuvonov – CHDPU, Nemis tili kafedrasи o'qituvchisi
9.	<b>Taqrizchilar:</b> X.R. Raximov - O'zDJTU, Nemis tili nazariy fanlar kafedrasи professori, filologiya fanlari nomzodi S.X.Nazarov - TDPU "Yevropa tillari" kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent